



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal



www.innoworld.net

+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 3, Issue 3
2025

Journal has been listed in different indexings

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:

www.innoworld.net

Andijon-2025



OILA MUHITIDA MILLIY-MA'NAVIY VA ZAMONAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING SOTSIOLOGIK JIHATLARI

Maxamatkarimov Muzaffar Abdukarim o'g'li
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila muhitida milliy-ma'naviy va zamonaviy qadriyatlarni shakllantirishning bugungi kundagi ahamiyati, bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni keng yoritilgan. Shuningdek, oilaviy qadriyatlar tizimida milliy-ma'naviy va zamonaviy qadriyatlarning ahamiyati ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oila, qadriyatlar, milliylik, tarbiya, oila demografiyasi, ijtimoiy-psixologik omillar.

Аннотация. В данной статье широко освещается современное значение формирования национально-духовных и современных ценностей в семейной среде, а также содержание реформ, осуществляемых в Узбекистане в этой связи. Также проанализировано значение национально-духовных и современных ценностей в системе семейных ценностей с социально-психологической точки зрения.

Ключевые слова: семья, ценности, национальность, воспитание, демография семьи, социально-психологические факторы.

Annotation. This article extensively covers the current significance of forming national-spiritual and modern values in the family environment, and the content of reforms being implemented in Uzbekistan in this regard. Also, the significance of national-spiritual and modern values in the system of family values was analyzed from a socio-psychological point of view.

Keywords: family, values, nationality, upbringing, family demographics, socio-psychological factors.

Jamiyatda har qanday ijtimoiy jarayonning ildizi, avvalo, oilada boshlanadi. Chunki oila – inson shaxsiyati, dunyoqarashi, axloqi va qadriyatlarining shakllanishida birinchi va asosiy muhit hisoblanadi. Shuning uchun ham jamiyatda milliy-ma'naviy va zamonaviy qadriyatlarni uyg'un ravishda tarbiyalash masalasi, eng avvalo, oiladan boshlanishi kerak. Bu jarayonda sotsiopsixologik omillar va mexanizmlar katta ahamiyatga ega.

Prezidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2025-yil 23-sentabrdagi 80-sessiyasida yoshlarning ta'lim va tarbiyasi haqida: "Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o'sib kelayotgan yosh avlod qo'lida. Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do'stlik, o'zaro ishonch

va hurmat kabi olijanob g'oyalarni singdirish dolzarb vazifamizdir" – deb ta'kidlagani ham bejizga emas.

Oilada bu qadriyatlarning mustahkamlanishi nafaqat ma'naviy, balki ruhiy barqarorlikni ham ta'minlaydi. Masalan, bola o'zini qadrlangan, eshitilgan va tushunilgan muhitda his qilsa, uning ichki dunyosida ijobiy ruhiy kayfiyat, o'zini bahamjihat jamiyat a'zosi sifatida his qilish hissi paydo bo'ladi. Bu esa uning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda oilaning tarixiy shakllanish jihatlarini tadqiq etishda xalqimizning milliy o'ziga xosligi, demografik va hududiy jihatlarini, innovatsion taraqqiyot mezonlarni hisobga olgan holda, uni sotsial institut sifatida, avlodlar vorisligini tamin etib beruvchi, shaxsning ijtimoiylashuvidagi ilk maskan sifatida mustahkamlash uchun katta va keng qamrovli tadqiqotlar olib borish zarurati paydo bo'ldi. Bu borada akademik R.Ubaydullayeva, Q.Abdurahmonov, sotsiolog olimlardan M.Bekmurodov, Sh.Sodiqova, A.Qahhorov, M.G'afforova, K.Kalonov, Sh.Madayeva, U.Qayumov, M.Tursunov, demograf olimlardan I.Mullajonov, M.Qoraxonov, E.Ahmedov, L.Maksakova, O.Saidahmedov, G.Murtazina kabilar oila iqtisodi, oila ma'naviyati, oilada qadriyatlarning o'rni, oila demografiyasi va boshqa jihatlariga oid ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Globalashuv jarayonlari, internet va axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi, turli madaniyatlarning aralashishi natijasida zamonaviy qadriyatlar oila muhitiga jadal ravishda kirib kelmoqda. Bunday qadriyatlar qatoriga shaxsiy erkinlik, tenglik, innovatsiyalarga ochiqlik, tanqidiy fikrlash va zamonaviy turmush tarzi kirishi mumkin. Bu, albatta, muayyan ma'noda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lsa-da, milliy qadriyatlar bilan qarama-qarshi kelganda, muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ayniqsa, yoshlar orasida g'arb madaniyatiga taqlid qilish, milliy kiyim-kechakdan yuza o'girish, milliy bayram va an'analarga befarqlik holatlari kuzatilmoqda. Bu esa oiladagi tarbiyaning sotsiopsixologik jihatlariga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Zamonaviylikni qabul qilish bilan birga, milliylikni asrash imkonini beradigan tarbiya usullarini ishlab chiqish muhim vazifadir.

Ma'naviy qadriyatlar amaliy jihatdan keng ma'noda insonning barcha xatti-harakati, faoliyati, xulqi, odobi, insonlar bilan bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'lsa, tor ma'noda odamlarning falsafiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy qarashlarida, tafakkuri, dunyoqarashlarida namoyon bo'ladi. Bugungi innovatsion texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin.

Oilada qadriyatlarni shakllantirish jarayoni – bu faqat axloqiy ta'lim emas, balki ijtimoiy va psixologik jarayondir. Sotsiopsixologik nuqtai

nazardan olib qaralganda, bolalar va kattalar o'rtasidagi muloqot madaniyati, ularning bir-biriga nisbatan ishonchi va ehtiromi, o'z fikrini erkin bildirish imkoniyati – barchasi oiladagi umumiy ruhiy muhitga ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, agar bola fikri eshitilmasa, faqat buyruqbozlik asosida tarbiyalansa, u o'z fikrini bildirishdan qo'rqadi, shaxsiy qarashlarini rivojlantirmaydi. Bunday vaziyatda zamonaviy bilim va innovatsiyalarga ochiqlik shakllanmaydi, bu esa jamiyatda passiv, ijtimoiylashmagan shaxslarning ko'payishiga olib keladi. Shu sababli sotsiopsixologik yondashuv bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularda milliy qadriyatlarga asoslangan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtira oladigan shaxs tarbiyalashga yo'naltirilishi kerak.

Milliy qadriyatlar – bu xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, an'analar, tili, diniy e'tiqodi, madaniyati va ma'naviyatidir. Ularning yosh avlod ongiga singdirilishi oiladagi tarbiyaning mazmun-mohiyatiga bog'liq. Ota-ona bolasiga mehr-oqibat, kattalarni hurmat qilish, vatanparvarlik, sadoqat va insonparvarlik kabi fazilatlarni o'rgatishi kerak. Ana shunda bola o'zini millatining ajralmas bir qismi sifatida his qiladi, o'zligini anglaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan etuk kadrlar suv bilan havodek zarur", – deb ta'kidlagani ham bejizga emas.

O'zbekistonda oilaga hurmat, mehnatsevarlik, katta-kichik o'rtasida xushmuomalalik, mehmondo'stlik kabi qadriyatlar avloddan avlodga o'tib kelgan. Bu nafaqat jamiyat barqarorligini ta'minlaydi, balki milliy o'zlikni anglashni mustahkamlaydi. An'analar bizning kimligimizni belgilaydi. Ular avloddan avlodga o'tib, hayotimizga ma'no-mazmun bag'ishlaydi. Masalan, Navro'z mamlakatimizda nafaqat bayram, balki milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, odamlarni birlashtirish vositasi hamdir. Shunga o'xshash oilaviy marosimlar, to'y marosimlari yoki mehmondo'stlik madaniyati bizning kimligimizni belgilaydigan an'analardir.

Oila jamiyatning eng kichik, lekin eng muhim instituti bo'lib, millat madaniyati, an'analar va qadriyatlarini avloddan-avlodga o'tkazishda asosiy vazifani bajaradi. Milliy-ma'naviy va zamonaviy qadriyatlarning uyg'unligi milliy o'zlikni saqlash va taraqqiy etishning muhim omilidir. Bu jarayonda quyidagi sotsiopsixologik jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, oiladagi insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar milliy ma'naviyatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Insonlarning o'z milliy an'alariga bo'lgan munosabati, urf-odatlar va qadriyatlarga ehtirom bilan qarashi, ayniqsa ona tilida so'zlashish va milliy bayramlarni o'tkazish kabi odatlar, yosh avlodning milliy ruhda tarbiyalanishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, zamonaviylikning ta'siri oiladagi qadriyatlarning transformatsiyasiga sabab bo'ladi. G'arb mamlakatlarida shakllangan g'oyalar,

texnologiyalar va yangi turmush tarzi zamonaviy qadriyatlarning shakllanishiga yo'l ochadi. Bu esa sotsiopsixologik jihatdan oila a'zolari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va muvozanatni saqlashni talab qiladi. Yangi va an'anaviy qadriyatlar o'rtasidagi moslashuv jarayonida oiladagi har bir shaxsning ichki psixologik holati, ularning o'zlikni anglash darajasi va o'zgarishlarga munosabati muhimdir.

Uchinchi, milliy-ma'naviy va zamonaviy qadriyatlarning uyg'unligi oiladagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, avlodlar o'rtasidagi muloqotni mustahkamlaydi, o'zaro tushunish va hurmatni oshiradi.

To'rtinchi, oilada milliy-ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashda ruhiy muhitning ahamiyati katta. Oila a'zolari o'rtasidagi sevgi, hurmat va ishonch, har bir shaxsning o'zligini anglashi va milliy qadriyatlarga sodiq bo'lishi uchun zarur psixologik sharoit yaratadi. Ruhiy barqarorlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ayniqsa yoshlar uchun milliy o'zlikni anglash va qadrlashda muhim bo'lib, ularni noto'g'ri g'oyalar va ta'sirlardan himoya qiladi.

Beshinchi, zamonaviy jamiyatdagi globallashuv va axborot texnologiyalari oilada milliy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasidagi munosabatni yanada murakkablashtiradi. Yoshlar internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali turli madaniyatlar bilan tanishadi. Bu ularning oiladagi milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini o'zgartirishi mumkin. Shu bois, oiladagi ona-ota va kattalar yoshlarga milliy qadriyatlarni tushuntirish va ularni zamonaviy jamiyat sharoitida ham saqlab qolish zarurligini yoritib berishlari lozim.

Oltinchi, oilada milliy-ma'naviy va zamonaviy qadriyatlarni birlashtirishda ijtimoiy normalar va urf-odatlarining rolini o'rganish muhim. Bu normalar oilaviy munosabatlar, tarbiya usullari, mehr-oqibat ko'rsatish kabi sohalarda namoyon bo'ladi. Zamonaviy qadriyatlar, jumladan gender tenglik, shaxsiy erkinlik va innovatsiyalarni qabul qilish, milliy urf-odatlar bilan muvofiqlashtirilishi lozim. Bu jarayonda oila a'zolari o'rtasida ochiq muloqot va fikr almashish muhim ahamiyatga ega.

Yettinchi, milliy-ma'naviy va zamonaviy qadriyatlarning birgalikda rivojlanishi uchun oiladagi tarbiya tizimida psixologik yondoshuvlarni qo'llash lozim. Masalan, yoshlarga milliy tarix va madaniyatni sevdirish bilan birga, ularni tanqidiy fikrlashga, mustaqil qarorlar qabul qilishga va jamiyatda faol ishtirok etishga o'rgatish kerak. Bu esa ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratadi.

Sakkizinchi, oilada farzand tarbiyasi jarayonida individual yondoshuv ham muhim ahamiyatga ega. Har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlari turlicha bo'ladi. Shuning uchun milliy va zamonaviy qadriyatlarni singdirishda bolaning yoshi, ruhiy holati va dunyoqarashi hisobga olinishi lozim. Masalan, kichik yoshdagi bolalarga milliy

ertaklar, qahramonlar orqali vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi qadriyatlarni anglatish mumkin. Katta yoshda esa mulohaza yuritishga undaydigan murakkab ijtimoiy va axloqiy masalalarni muhokama qilish orqali ularning shaxsiy munosabatini shakllantirish mumkin.

To'qqizinchidan, oiladagi milliy va zamonaviy qadriyatlarni uyg'unlashtirishda ona-ota namunasi asosiy rol o'ynaydi. Bolalar ko'p hollarda kattalarning xulq-atvori, gap-so'zi va kundalik odatlariga qarab o'zlarining hayotga munosabatini shakllantiradilar. Agar ota-ona milliy urf-odatlarga rioya qilsa, o'tmishdan faxrlansa, ammo zamonaviy texnologiyalar, ilm-fan va madaniyatni ham inkor etmasa — bu bolada muvozanatli shaxs sifatida shakllanishga xizmat qiladi.

O'ninchidan, oilada milliy-ma'naviy va zamonaviy qadriyatlarni uyg'unlashtirishda ta'lim muassasalari bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Maktab, kollej va universitetlarda olinayotgan ta'lim oiladagi tarbiya bilan uyg'un bo'lishi lozim. Aks holda bola zamonaviy bilimlarni oladi, ammo milliy qadriyatlardan uzoqlashishi mumkin. Buning oldini olish uchun ta'lim muassasalarida milliy merosga oid fanlar, madaniyat kunlari, vatanparvarlik tarbiyasiga bag'ishlangan tadbirlar oilaviy ishtirok asosida o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Jamiyat taraqqiyoti va farovonligi uning eng kichik bo'lagi bo'lgan oilalar farovonligini ta'minlashdan boshlanar ekan, oilada ma'naviy-madaniy va ijtimoiyaxloqiy qadriyatlarni shakllantirish, ma'naviy omillar ta'sirchanligini oshirish ijtimoiy muhitdan, ayniqsa mahalladan ayricha sodir bo'lmaydi. Jamiyatning barcha sohalaridagi tub o'zgarishlar jarayonida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ham vakolat va vazifalari bilan birga mas'uliyatlari ham ortmoqda. Mazkur funksiyalarni to'laqonli bajarishda, tizimda mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etishda ham xotin-qizlar faolligini kuzatish mumkin.

Yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni yana bir muhim jihat — bu ularni doimo mehnat qilishga, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, xususiy mulkchilik xususiyatlarini o'rganishga undaydi, adolatlilik, e'tiqodlilikni shakllantiradi.

Ma'lumki, tarbiyaning milliy o'ziga xos jihatlari birlashib, u doim rivojlanib, boyib boradi. Chunki har bir millatga uning ajdodlari tomonidan yaratilgan milliy tarbiya o'z o'rnini topadi, uning vakillari ongida mustahkamlanadi. Demak, har bir millat o'ziga xos axloq, odob va tarbiya vositalariga ega.

Millat va milliy tarbiyaning o'ziga xos jihatlari haqida gap borganda ta'kidlash lozimki, millatning o'ziga xosligi, betakrorligi, rang-barangligi va ijtimoiy jarayonda o'zgarib borishi bilan bog'liq, eng asosiy qadriyati uning genofonidir.

Shuningdek, milliy tarbiyada har bir insonning jamoat ichida o'zini tutishi, ko'pchilik oldida har bir so'zni o'ylab gapirishi, kam gapirib, ko'p

tinglashi, el ichida obro' topishning qiyinligi, obro'ni to'kish osonligini anglab etishi, birovga noo'rin malomat qilmaslik, do'st tanlashda adashmaslik, doimo yaxshilarga yondashib yurish, yomonlardan uzoqda bo'lish, o'zi suv ichadigan quduqqa tuflamaslik, urishganlarni yarashtirib qo'yish va hokazolar; halollik, insofilik borasida mehnatsevar, adolatli kishilarga to'g'ri va yoqimli munosabatda bo'lish, muhtoj kishilarga ko'magini ayamasklik, barchaga mehr oqibatli bo'lish, baxil bo'lmaslik, ta'magirlik qilmaslik, ko'ngilda kek va g'araz saqlamaslik, ig'vo, dangasalik, chaqimchilik, g'irromlik, o'g'rilikdan uzoqda bo'lish kabi yuksak axloqiy fazilatlarni o'zida shakllantirish o'ziga xos jihatlarimizni belgilaydigan mezonlardir. Bundan tashqari, yoshlarimizda muhim qadriyatlarimizdan sanalgan tabiatga, undagi nabotot va hayvonot olamiga mehr-muhabbatda bo'lish, ularni asrab avaylash, tabiatga zarar keltiruvchilarga murosasiz bo'lish, turar joylarni pokiza va ozoda saqlash kabi fazilatlarni tarbiyalash ham milliy tarbiyamizning o'ziga xos jihatlaridan hisoblanadi.

Shuningdek, oilada milliy-ma'naviy va zamonaviy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni jamiyatning barqarorligi, milliy o'ziga xosligi va jahonlashuv sharoitida o'z o'rnini topishi uchun muhimdir. Sotsiopsixologik jihatdan qaralganda, bu jarayon faqat an'anaviy tushunchalarni saqlash emas, balki ularni zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirishni ham nazarda tutadi. Shu bois, oilada sotsiopsixologik muhitni yaxshilash, muloqotni kuchaytirish va milliy hamda zamonaviy qadriyatlarni birlashtiruvchi tarbiya usullarini joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oilada milliy-ma'naviy va zamonaviy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida sotsiopsixologik jihatlar murakkab va ko'p qirralidir. Milliy ruhni saqlab qolish va zamonaviylikni qabul qilish o'rtasidagi muvozanatni topish, avvalo, oila a'zolarining psixologiyasi, ularning ma'naviy dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liq. Shuning uchun milliy va zamonaviy qadriyatlarni integratsiya qilishda psixologik tushunish va muloqot jarayonlariga alohida e'tibor qaratish katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. 2025-yil 23-sentabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8525>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi. 2023-yil 22-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/6941>
3. Akilova O'. Yangilanayotgan jamiyat ma'naviy omillari ta'sirchanligini ta'minlashda xotin-qizlarning roli. Journal of Social Studies. 2021, Special. Issue 1, pp.174-180. <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-SI-1-19>
4. Farmonova M. Qadriyatlar-ma'naviy kamolot asosi / Ilmiy-uslubiy qo'llanma. - Toshkent: "Tasvir nashriyot uyi", 2019, 36 b.